



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayeich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	



QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Saburov Jumanazar Saliyevich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti tadqiqotchisi

E-mail: jumanazar7004774@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7419-2772

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasini baholash, soha rivojiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali erishilgan natijalar va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga ilmiy va innovatsion loyihalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalar hamda "aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasini joriy etish orqali oziq-ovqat barqarorligini ta'minlash va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: aqlli qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi 4.0, oziq-ovqat barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, to'yib ovqatlanmaslik, ochlikni bartaraf etish, qulay agrobiznes muhiti.

Abstract. The article focuses on assessing the level of agricultural development and analyzing the factors influencing the growth of the sector, as well as the achieved results and future development prospects through the effective use of existing opportunities. It also highlights the issues of strengthening food security through the implementation of scientific and innovative projects in the agricultural sector. In particular, special attention is paid to ensuring food sustainability and enhancing national food security through the introduction of digital technologies and the concept of smart agriculture.

Key words: smart agriculture, agriculture 4.0, food sustainability, food security, malnutrition, hunger eradication, favorable agribusiness environment.

Аннотация. В статье основное внимание уделяется оценке уровня развития сельского хозяйства, а также анализу факторов, влияющих на развитие отрасли, и достигнутых результатов и перспектив дальнейшего развития за счёт эффективного использования имеющихся возможностей. Освещаются вопросы укрепления продовольственной безопасности посредством реализации научных и инновационных проектов в сфере сельского хозяйства. В частности, акцент сделан на проблемах обеспечения продовольственной устойчивости и укрепления продовольственной безопасности страны на основе внедрения цифровых технологий и концепции «умного сельского хозяйства».

Ключевые слова: умное сельское хозяйство, сельское хозяйство 4.0, продовольственная устойчивость, продовольственная безопасность, неполноценное питание, искоренение голода, благоприятная агробизнес-среда.

KIRISH

Qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasini baholash hamda soha rivojiga ta'sir etuvchi omillar va mavjud imkoniyatlardan keng foydalanishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, intensiv bog'lar tashkil etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, olim va mutaxassislarning fikr-mulohazalari hamda to'plangan tajribalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, paxta ekin maydonlarini qisqartirish, intensiv bog'larni tashkil etish va yerlarning meliorativ



holatini yaxshilash yo'llari "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Agrar sektor respublikada oziq-ovqat ta'minotining asosiy manbalaridan biri sifatida qaralib, u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan birga, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash imkonini ham yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligining rivojiga ta'sir etuvchi omillar hamda mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish masalalari ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va rivojlantirilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va uni rivojlantirish muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan I.A. Baranov, M.A. Solomaxin, N.A. Popov, L.V. Agarkova, A.V. Afanasyeva, N.I. Grekov va boshqalar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini tadqiq etish, qishloq xo'jaligi sohasini iqtisodiy-statistik tahlil qilish hamda uning rentabelligini yanada oshirish masalalari Q. Choriyev, R.H. Husanov, F. Dusmatov, N.S. Xushmatov, A.X. Burhonov, M. Mirzayev, Ch. Murodov, U. Umurzoqov va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi hududiy tarmoq rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmaganligini ham qayd etish lozim. Yuqorida keltirilgan fikrlar, bir tomondan, mavzuning hanuzgacha o'z yechimini topmagan muammolari mavjudligini, ikkinchi tomondan esa uning obyektiv zarurati va dolzarbligini ko'rsatib, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning nazariy va uslubiy asosini mahalliy va xorijiy olimlar hamda amaliy iqtisodchilarning hududlar rivojlanishida qishloq xo'jaligi muammolarini o'rganish, bozor mexanizmlarining amal qilishini tartibga solish va erkin tadbirkorlik sharoitida raqobatni himoya qilish, shuningdek, hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmog'ida yuz berayotgan o'zgarishlar tendensiyalari asosida uni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlari tashkil etadi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlari, xorijiy monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari, davlat statistika ma'lumotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligi subyektlari materiallari, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda seminarlar materiallari, shuningdek, iqtisodiyotning o'rganilayotgan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlanmalardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash muammolari hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisi 10 milliard kishiga yetishi mumkin va bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning degradatsiyaga uchrashi kuchayib borayotgan hamda suv resurslari qisqarib borayotgan bir sharoitda dunyo aholisini yetarli miqdor va sifatdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasini yanada murakkablashtiradi. Bugungi kunda Yer sharidagi 7,7 milliarddan ortiq aholining 2,6 milliard yoki 33 foizdan ziyodi asosan qishloq xo'jaligi hisobiga kun kechirayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning 52 foizi kuchli degradatsiyaga uchraganligi oqibatida tuproq unumdorligi sezilarli darajada pasaygan. Qurg'oqchilik va cho'llanish jarayonlari natijasida har yili 12 million gektar yer (har daqiqada 23 gektar) foydalanishdan chiqib ketmoqda [4].

Keyingi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida respublikamiz Global ochlik indeksida (GHI) o'z pozitsiyasini yaxshilab borib, 2020-yilda 107 ta mamlakat ichida 51-o'rinni egalladi va 6,7 ball bilan ochlik darajasi past bo'lgan mamlakat sifatida e'tirof etildi [6].

Agrar sektor respublikada oziq-ovqat ta'minotining asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu tarmoq aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan birga, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash imkonini ham yaratadi.

"O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish



va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish hamda qishloq hududlarini rivojlantirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ko'plab olimlar va soha mutaxassislarining fikricha, global oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini ta'minlash masalasini tarmoqqa raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish, ya'ni "aqlli qishloq xo'jaligi" hamda "Qishloq xo'jaligi 4.0" konsepsiyalarini tatbiq etish orqaligina hal etish mumkin. Jumladan, "Future Market Insights" tahlilchilarining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda "aqlli qishloq xo'jaligi"ga o'tish jarayoni sekin, biroq izchil amalga oshirilmoqda. Bozorning katta qismi, ya'ni 53 foizi Shimoliy Amerikada joylashgan bo'lib, bu holat AQSh fermerlari tomonidan aqlli innovatsiyalarga bo'lgan kuchli qiziqish bilan izohlanadi. IT texnologiyalar yer maydonlarida asosan don ekinlari yetishtirishda faol qo'llanilmoqda va bu "aniq dehqonchilik" nomi bilan atalmoqda. Umuman olganda, "Goldman Sachs Group" tahlilchilarining ta'kidlashicha, ko'plab mamlakatlar "analog" tizimdan "aqlli" tizimga o'tish orqali qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirib bormoqda. Ularning prognozlariga ko'ra, yangi texnologik yechimlarni joriy etish natijasida 2050-yilga borib dunyo miqyosida dehqonchilik hajmini 70 foizga oshirish mumkin bo'lib, bu qariyb 800 milliard AQSh dollari miqdoridagi qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni anglatadi [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli¹ qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi "aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish shakllarini joriy etish, agrar ishlab chiqarishni maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni sezilarli oshirish, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO UN) tadqiqotlariga ko'ra, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish yoki "aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish resurslardan foydalanishni optimallashtirish, kommunikatsiyalarni kengaytirish hamda yuqori inklyuzivlik hisobiga agrar sektorda unumdorlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, shuningdek, yangilanayotgan bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi [9]. Shu bilan birga, tarmoqda raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- raqamli texnologiyalarni qo'llashga imkon beruvchi minimal sharoitlar, ya'ni raqamli texnologiyalarning mavjudligi, ularga jismoniy va moliyaviy jihatdan ulanish imkoniyatlari, aholining kompyuter savodxonligi darajasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta'lim berish darajasi hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi siyosiy chora-tadbirlar (elektron hukumat va boshqalar);

- raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi sharoitlar, xususan, internet, mobil aloqa va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalganligi, ulardan foydalanish imkoniyatlari, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari hamda tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (biznes-inkubatorlar, startaplar va boshqa innovatsion dasturlar).

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarga asoslangan "aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali "Qishloq xo'jaligi 4.0" innovatsion rivojlanish bosqichiga o'tilmoqda. Ishlab chiqarishga raqamlashtirilgan innovatsion texnologiyalar, jumladan, keng polosali internet, mobil aloqa, axborot texnologiyalari (ma'lumotlar bazalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalari), mashina va uskunarlar (haydovchisiz boshqariladigan o'ziyurar texnikalar, uchuvchisiz uchish apparatlari, datchiklar, sensorlar va boshqaruv elementlari)ni joriy etish natijasida "agrosanoat majmuini raqamli boshqarish", "aqlli dehqonchilik", "aqlli dala", "aqlli bog", "aqlli issiqxona", "aqlli ferma" kabi ilg'or va samarali xo'jalik yuritish usullari shakllanmoqda.

Global o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston Respublikasi agrar sektori rivojlanish ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, ekinlar hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligi bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlardan ortda qolmoqda. Jumladan, tarmoqda band aholining umumiy bandlikdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda 1,3-5 foizni tashkil etsa, respublikamizda ushbu ko'rsatkich 26 foizdan yuqori bo'lib, bu holat mamlakatning rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritilishiga sabab bo'lmoqda; tarmoqda mehnat unumdorligi ilg'or mamlakatlar darajasidan sezilarli darajada past; sug'orishda eskirgan an'anaviy usullardan foydalanilishi suv tanqisligi sharoitida ortiqcha suv sarfiga, sug'oriladigan ekin maydonlarining 45 foizdan ortig'ining turli darajada sho'rlanishiga va natijada hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda; tarmoqni yuqori unumli va resurs tejankor texnika hamda texnologiyalar bilan ta'minlash darajasi yetarli emas; qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan texnika

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5179198>



va agregatlarning aksariyati 15-yildan ortiq vaqt davomida ishlatilmoqda va ularning yangilanish darajasi past; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari agrokimyoviy tuproq tahlili, ekinlarni sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari orqali optimal joylashtirish, vegetatsiya davrida avtomatik oziqlantirish va monitoring qilish imkonini beruvchi elektron platformalarga yetarli darajada ega emas; chorvachilikda esa ko'plab ish jarayonlari hanuzgacha qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, chorva mollarini oziqlantirish va ularning holatini kuzatish hamda boshqa jarayonlarni avtomatik rejimda amalga oshiruvchi ilg'or texnologiyalar deyarli qo'llanilmaydi.

Mazkur omillar natijasida respublikamiz aholisini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq aholisining bandligi va moddiy farovonligini oshirish hamda ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirish masalalari to'liq o'z yechimini topmay qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda respublikamiz agrar sektorida raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yechimlardan foydalanish ko'lamida juda cheklangan bo'lib, bu holat mazkur strategiya doirasida belgilangan maqsad va vazifalarning nafaqat respublika, balki jahon miqyosida ham nisbatan yangi yo'nalish ekanligi, zarur axborot manbalari va texnik vositalarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishda murakkab IT yechimlar, sun'iy intellekt vositalari va yuqori malakali mutaxassislar talab etilishi bilan izohlanadi. Jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanish asosan internet infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib, hozirgi kunda dunyo bo'ylab abonentlarning qariyb 90 foizi kamida 3G texnologiyasi orqali internetga ulanish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaramay, kam rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholisining atigi uchdan bir qismi 3G texnologiyali tarmoqlardan foydalanmoqda [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida raqamli agroteknologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan tizimli muammolar mavjud. Jumladan, mavjud texnologiyalarning joriy etilish darajasi, texnik va infratuzilmaviy ta'minot, kadrlar salohiyati hamda moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli emasligi raqamli transformatsiya samaradorligini cheklamoqda. Shu munosabat bilan, qishloq xo'jaligida raqamli agroteknologiyalarni joriy etishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolar va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda "aqlli qishloq xo'jaligi" va raqamli texnologiyalar tizimini qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish asosida ularning eng maqbul jihatlari tanlab olish va respublika sharoitiga moslashtirib joriy etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, agrar ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda zamonaviy intellektual texnologiyalarni, jumladan, haydovchisiz boshqariladigan o'ziyurar texnika va mashinalar, kamera va sensorlar bilan jihozlangan navigatsion dronlar, chorva mollari va ekinlar holati, tuproq namligi hamda mikroiklimni kuzatib boruvchi datchiklar, chorvachilik fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish platformalari kabi "aqlli" yechimlarni joriy etish bo'yicha amaliy yo'riqnomalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, birlamchi va chuqur qayta ishlash hamda sotish jarayonlarini yagona raqamli platformaga integratsiyalash orqali "qo'shilgan qiymat zanjiri"ni uzluksiz kuzatib borish, mahsulotlar nobud bo'lishi bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish va agrar tarmoqning umumiy samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ishlarini kuchaytirish, baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlashni kengaytirish bo'yicha ko'rsatma berildi. 2021-yil 20-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4839>
2. FAO, IFAD, UNICEF, WFP va WHO (2021). Kratkiy obzor. Polozheniye del v oblasti prodovolstvennoy bezopasnosti i pitaniya v mire – 2021. Preobrazovaniye prodovolstvennykh sistem v interesakh obespecheniya prodovolstvennoy bezopasnosti, uluchsheniya pitaniya i ekonomicheskoy dostupnosti zdorovykh ratsionov pitaniya dlya vsekh. Rim: FAO. <https://doi.org/10.4060/cb5409ru>
3. FAO (2015). FAO and the 17 Sustainable Development Goals. <http://www.fao.org/3/i4997e/i4997e.pdf>
4. United Nations. Sustainable Development. <https://www.un.org/sustainabledevelopment>
5. Griggs D. et al. Sustainable Development Goals for people and planet // Nature. – 2013. – Vol. 495. – No. 7441. – P. 305-307.
6. Global Hunger Index (GHI) (2020). Global Hunger Index scores by 2020 GHI rank. <https://www.globalhungerindex.org>
7. Qishloq xo'jaligidagi loyihalar ijrosi ko'rib chiqildi. <https://president.uz/uz/lists/view/5157>
8. Endi qishloq xo'jaligi tizimi ham "aqlli" bo'ladi. <https://www.xabar.uz/texnologiya/endi-qishloq-xojaligi-tizimi-ham-aqlli-boladi>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
